

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FAVQULODDA VAZIYATLAR  
VAZIRLIGI AKADEMIYASI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR  
BERUVCRI DSc.40/29.12.2022.T.129.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH  
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**FARG‘ONA POLITEKNIKA INSTITUTI**

**RAXMANOV BAXODIR KUSHAKOVICH**

**NOMETALL TO‘QIMA TASMA VA ARQONLARDAN  
TAYYORLANGAN EGILUVCHAN YUK KO‘TARISH  
MOSLAMALARINING KONSTRUKSIYAVIY XAVFSIZLIGINI  
BAHOLASH VA ULARNI FAVQULODDA VAZIYATLARDA  
QO‘LLASHNING ALOHIDA JIHALARI**

**05.10.02 – Favqulodda holatlarda xavfsizlik. Yong‘in, sanoat, yadro va radiatsiya  
xavfsizligi  
05.09.05 - Qurilish materiallari va buyumlari**

**TEXNIKA FANLARI DOKTORI (DSC) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**  
**Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)**  
**Contents of dissertation abstract of doctor sciences (DSc)**

**Raxmanov Bahodir Kushakovich**

Nometall to‘qima tasma va arqonlardan tayyorlangan egiluvchan yuk ko‘tarish moslamalarining konstruksiyaviy xavfsizligini baholash va ularni favqulodda vaziyatlarda qo‘llashning alohida jihatlari..... 5

**Raxmanov Bahodir Kushakovich**

Оценка конструкционной безопасности гибких грузозахватных приспособлений из неметаллических тканых лент и канатов и особенности применения их при чрезвычайных ситуациях..... 28

**Rahmanov Bahodir Kushakovich**

Assessment of the structural safety of flexible load-handling devices made of non-metallic woven tapes and ropes and features of their use in emergency situations..... 54

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works..... 59

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FAVQULODDA VAZIYATLAR  
VAZIRLIGI AKADEMIYASI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR  
BERUVCRI DSc.40/29.12.2022.T.129.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH  
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**FARG‘ONA POLITEKNIKA INSTITUTI**

**RAXMANOV BAXODIR KUSHAKOVICH**

**NOMETALL TO‘QIMA TASMA VA ARQONLARDAN  
TAYYORLANGAN EGILUVCHAN YUK KO‘TARISH  
MOSLAMALARINING KONSTRUKSIYAVIY XAVFSIZLIGINI  
BAHOLASH VA ULARNI FAVQULODDA VAZIYATLARDA  
QO‘LLASHNING ALOHIDA JIHATLARI**

**05.10.02 – Favqulodda holatlarda xavfsizlik. Yong‘in, sanoat, yadro va radiatsiya  
xavfsizligi  
05.09.05 - Qurilish materiallari va buyumlari**

**TEXNIKA FANLARI DOKTORI (DSC) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.DSc/T728 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya tadqiqotlari Farg‘ona politexnika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)), Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.akademiya.fvv.uz](http://www.akademiya.fvv.uz)) va «ZiyoNet» Axborot–ta‘lim portaliga ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy maslahatchi:**

**Razzakov Sobirjon Jo‘raevich**  
texnika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Madjidov Inomjon Urishevich**  
texnika fanlari doktori, professor

**Qosimov Ibroxim Irkinovich**  
texnika fanlari doktori, professor

**Nurmamatova Rahima Rahmanovna**  
texnika fanlari doktori, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Jizzax politexnika instituti**

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.40/29.12.2022.T.129.01 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2025 yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_\_ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100102, Toshkent shahar, Yangiheyot tumani, Do‘stlik ko‘chasi, 5–uy. Tel.:(71) 258-35-33; e-mail: [info@akademiya.fvv.uz](mailto:info@akademiya.fvv.uz)).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Respublikasi FVV Akademiyasi Axborot–resurs markazida tanishish mumkin (№\_\_\_ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100102, Toshkent shahar, Yangiheyot tumani, Do‘stlik ko‘chasi, 5–uy. Tel.:(71) 258-35-33; e-mail: [info@akademiya.fvv.uz](mailto:info@akademiya.fvv.uz)).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2024 yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_dagi \_\_\_ – raqamli reestr bayonnomasi).

**B.T.Ibragimov**

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik  
ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor

**X.M.Dusmatov**

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik  
ilmiy kengash ilmiy kotibi, k.f.n., dotsent

**R.I.Ismailov**

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik ilmiy  
kengash qoshidagi bir martalik ilmiy seminar  
raisi, t.f.d., professor

## **KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda texnogen va favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishda, shu jumladan, turli sanoat tarmoqlarida, qurilishda nometall to'qima tasma va arqonli (NTTA) egiluvchan yuk ko'tarish moslama (YuKM)laridan foydalanish ulushi ortib bormoqda. "An'anaviy" po'lat arqonli yuk ko'tarish moslamalari bilan bir qatorda, yuqori va o'ta yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'lgan nometall polimer materiallardan tayyorlangan yuk ko'tarish moslamalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, Rossiya, AQSh, Germaniya va Finlandiya va boshqa rivojlangan mamlakatlarda yuk ko'tarish qobiliyati yuqori bo'lgan sintetik tolalar ishlab chiqarishni rivojlantirish tufayli NTTAdan og'ir yuk ko'taruvchi zamonaviy yuk ko'tarish moslamalarini yaratishda ma'lum yutuqlarga erishildi va shu asosda ergonomika va xavfsizlikni ta'minlashda qutqaruvchi va montajchilarning mehnati, texnogen va tabiiy favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishda yuklarni ko'tarish, tushirish va qutqaruv ishlarida insonlarning xavfsizligi, yukni ushlab turish vaqtida mehnat va material sarfini kamaytirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. So'nggi 10 yil ichida O'zbekistonda 6-8 balli 6 marta zilzila sodir bo'lib, ularning oqibatida 16 kishi halok bo'lgan, 54 kishi jarohatlangan. 2023-yil boshida O'zbekiston va unga tutash hududlarda Respublika Seysmologik monitoring markazi tomonidan 2,8 dan 6,8 ballgacha bo'lgan 250 dan ortiq zilzila qayd etilgan. Zilzila oqibatlarini bartaraf etish va aholini muhofaza qilish maqsadida 247 ta qo'mondonlik-shtab o'quv mashg'ulotlari va 19 ta maxsus taktik o'quv mashg'ulotlari o'tkazilgan. Ushbu tadbirlarda 90 mingga yaqin fuqarolar ishtirok etgan.

Jahonda NTTAlarning mustahkamligi, uzoqmuddatligi va yong'inga chidamliligini oshirishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ushbu turdagi yuk ko'tarish moslamalarining yengilligi, egiluvchanligi va yuk ko'tarish qobiliyati – yuklarni ko'tarib-tushirishda ko'plab muammolarni hal qilishga imkon beradi. Ba'zi hollarda, ular yuklarni ilib olish va stroplash uchun yagona vositadir. Ko'p jihatdan, bu qutqaruv ishlarida ehtiyotkorlik bilan ishlash zarur bo'lgan yuklarga tegishlidir. Bino va inshootlarning vayron bo'lishi bilan bog'liq favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishda jabrlanganlarni qutqarish muammolarini o'rganish shuni ko'rsatdiki, qutqaruv ishlarining samaradorligi nafaqat qo'llaniladigan texnologiya va ishlarni tashkil etishga, balki texnik yechimlarning samaradorligiga, yangi qurilma va qutqaruv uskunalari ham bog'liqdir.

Respublikamizda favqulodda vaziyatlar va qurilish industriyasida energiya va resurstejamkor texnologiyalardan samarali foydalanish bo'yicha yangi loyihaviy yechimlarni ishlab chiqish, mahalliy xomashyo asosidagi yangi innovatsion qurilish materiallari yaratish va ishlab chiqarishga tadbiriq etish, muayyan natijalarga erishishga qaratilgan ko'p qirrali chora-tadbirlarni amalga oshirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O'zbekistonda NTTAlarni ishlab chiqarish va ulardan foydalanish sohasida muayyan qadamlar qo'yilmoqda. Tasma va arqonlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan, ammo ular turli xil maishiy ehtiyojlar uchun ishlatilmoqda, ularning ko'rsatkichlari o'rganilmagan, bundan tashqari ular yuk ko'tarish va qutqaruv moslamalari uchun

mo'ljallanmagan. Ushbu mahsulotlarni ishlab chiqarish va ulardan foydalanish uchun normativ–huquqiy baza ham mavjud emas.

O'zbekiston Respublikasini 2022-2026-yillarda rivojlantirish strategiyasida, jumladan "...mavjud yong'in–qutqaruv bo'linmalarini zamonaviy texnika va asbob-anjomlar bilan jihozlash..."<sup>1</sup> eng muhimi import o'rnini bosish vazifalari belgilab berilgan.

Mazkur dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 17-avgustdagi №O'RQ-790-sonli "Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuni<sup>2</sup> va 2022-yil 6-iyuldagi № PF-307-sonli "2022-2026-yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi<sup>3</sup> qarorlari hamda ushbu faoliyat bilan bog'liq barcha me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishga ma'lum darajada xizmat qiladi.

### **Tadqiqotlarning respublika fan va texnika texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.**

Ushbu tadqiqot O'zbekiston Respublikasining fan va texnologiyalar rivojlanishining – II "Energetika, energiya– va resurstejamkorlik" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

#### **Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlarga sharh.**

Qutqaruv va qurilish montaj ishlari uchun zamonaviy egiluvchan nometall to'qima tasma va arqonli yuk ko'tarish moslamalarini ishlab chiqish va yaratishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar dunyoning kompaniyalari va yetakchi ilmiy markazlarida, jumladan Inka Ou (Finlyandiya), Certex (AQSH), Span Set, Industrial Products, Gehontund Hebeteknik, Carl Stahl GmbH, Geron (Germaniya), LANEXCZ, Spol. S.r.o. (Chexiya), Lemens, DSM, Honeywell (Gollandiya), De-Montfort universiteti, Buyuk Britaniya, Sankt-Peterburg Davlat texnologiya va dizayn universiteti, A. N. Kosigin nomidagi Rossiya Davlat universiteti, GUMP "Parashyutsozlik" ilmiy tekshirish instituti, "Polipron" ilmiy ishlab chiqarish korxonasi, Orel shahridagi "Promstal" ishlab chiqarish xoldingi va boshqalarda amalga oshirilgan.

Mamlakatimiz va xorijlik olimlar tomonidan polimer materiallarning xususiyatlarini o'rganishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar, jumladan, polimer multifilamentli tolalar va turli tarkibdagi iplarning xususiyatlarini o'rganish, turli sohalarda ishlatiladigan to'qima tasma va arqonlar kabi texnik mahsulotlarni ishlab chiqarish, ularning xususiyatlarni baholash bo'yicha metod va metodikalar yaratish, kerakli xususiyatlarga ega materiallarni yaratishga qaratilgan bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan.

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "Yangi O'zbekistonni 2022-2026-yillarda rivojlantirish strategiyasi to'g'risida"gi №PQ-60 sonli farmoni.

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 17-avgustdagi №O'RQ-790-sonli "Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuni.

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagi №307-sonli "2022–2026-yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.

Ko'p amaliy holatlarda qutqaruv, qurilish-montaj, yuklab-tushirish ishlarida no metall yuk ko'tarish moslamalari cho'zilgan (yuklangan) holatda bo'lib, bir qator texnologik jarayonlarda ular yanada deformatsiyalanadi. No metall yuk ko'tarish moslamalarining deformatsiya xususiyatlarini baholash va ishonchli bashorat qilish uchun, no metall yuk ko'tarish moslamalarining deformatsiyalanish xususiyatlarining o'zgarishini o'rganish dolzarb hisoblanadi.

**Muammoni o'rganilganlik darajasi.** No metall to'qima-tasma va arqonli mahsulotlarini muhandislik va texnologiyalarda qo'llash masalalari bilan olimlar o'tgan asrning o'rtalaridan boshlab, ya'ni no metall materiallarning yuqori mustahkamligi molekulyar kimyo tomonidan kashf etilgan paytdan boshlab shug'ullana boshladilar. Amerika Qo'shma Shtatlarida, Yevropaning rivojlangan mamlakatlarida va Rossiya Federatsiyasida yuqori quvvatli to'qima no metall materiallarini turli sanoat tarmoqlarida qo'llashni o'rganish bo'yicha tadqiqotlar olib borilgan.

Polimer tolalarning relaksatsiyasi, makro tuzilishi, ularning qattiqligi, mo'rtligi, charchoqliligi, cho'zilishi va sudraluvchanligi, elastik yopishqoqligi, ishlash jarayonida fizik-kimyoviy chidamliligi va deformatsiyalanish xususiyatlari Raxmatulin X. A., Askadskiy A. A., Bartenev G. M., Goldman A. Y., Abramov I. V., Berestnev V. A., Makarov A. G., Stalevich A. M., Perepelkin K. Ye., Rabotnov Yu. N., Tsobkallo Y. S kabi olimlar tomonidan chuqur o'rganilgan.

Kukin G. N., Solovev A. N., Koblyakov A. I., Makarov A. G., Stalevich A. M., Kalanchuk O. E., Popov L. N., Truevsev N. N., Bartenev G. M va boshqa olimlar sintetik tola va iplarning ishlab chiqarilishi texnologiyasi, ularning sifatini baholash, tarkibidagi to'qima tuzilishi xususiyatlari va tadqiqot metodlari bilan shug'ullanmoqdalar.

Rossiya va chet el olimlaridan Perepelkin K. Y., Konstantinova N. I., Mixaylin Y. A., Orlov A.V., Tujikov O. I., Berlina A. A., Zaxarova, N. N va boshqalar yong'in nazariyasining zamonaviy konsepsiyasi va to'qima materiallarining alanganishini kamaytirish usullarini ishlab chiqishga katta hissa qo'shishgan. NTTA dasturini ishlab chiqish, ularni ishlab chiqarish, sinovdan o'tkazish, foydalanish, standartlashtirish muammolari bilan olimlar Prusov A. Y., Stepanov Y. S., Velikanov N. L., Ivashkov N. I., Iodchin A. S., Bukalov G. K va boshqalar tadqiqotlar olib bormoqdalar.

Respublikamizda qurilish materiallari va ularni yong'indan himoyalash sohasida yetakchi olimlardan Jalilov A. T., Qosimov E. U., Samigov N. A., Adilxodjaev A. I., Akramov X.A., Razzakov S.J., Kurbanbaev Sh. E., Ibragimov B.T va boshqalar qurilish materiallari ishlab chiqarish, ulardan foydalanish madaniyatini rivojlantirishda o'z hissalarini qo'shib kelishgan va muhim ilmiy natijalarga erishganlar.

Ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlar, adabiyotlar tahlili va ish amaliyoti shuni ko'rsatdiki, O'zbekistonda tabiiy texnogen favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishda va qurilish-montaj ishlarida egiluvchan no metall to'qima tasma va arqonli yuk ko'tarish moslamalaridan foydalanish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmagan.

Oldingi va olib borilayotgan tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, nometall to'qima tasma va arqonli yuk ko'tarish moslamalarining qo'llanilish sohasida qiziqarli va ijobiy natijalarga erishilgan. Biroq ulardan foydalanish darajasi pastligicha qolmoqda. Po'lat arqonlardan foydalanishning o'ziga xos ko'rsatkichlari hali ham saqlanib qolmoqda va ko'p holatlarda zamonaviy talablarga javob bermaydi. Shu nuqtayi nazardan, yuklarning og'irligi (massasi) va murakkabligiga qarab po'lat arqonlar o'rnini, asta-sekin nometall to'qima tasma va arqonli yuk ko'tarish moslamalari egallashi kerak.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Farg'ona politexnika institutining № PZ-2017102319 "Nometall to'qima tasma va arqonlardan tayyorlangan egiluvchan yuk ko'tarish moslamalarining konstruksiyaviy xavfsizligini baholash va ularni favqulodda vaziyatlarda qo'llashning alohida jihatlari" loyihasi (2021-2013 yy) doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** – nometall to'qima tasma va arqonlar mexanik xususiyatlarini bashorat qilish va sifatini yaxshilashga qaratilgan, sintetik materiallarning fizik-mexanik xususiyatlari kompleksini aniqlashga ilmiy asoslangan yondashuvlarni ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

sintetik tola va iplar cho'zilishining turli bosqichlarida fizik-mexanik xususiyatlarini o'rganish va ushbu xususiyatlarning strukturaviy jarayonlar bilan uzaro bog'liqligini aniqlash;

noorganik va organik olovga chidamli moddalar asosidagi polimer ipsimon materiallarning yonuvchanligini pasaytiruvchi kompozitsiyalarini o'rganish;

nometall yuk ko'tarish moslamalaridagi sintetik tola, ip, to'qima-tasma va arqonlarning sudraluvchanlik va relaksatsiyasini bashorat qilish usullarini ishlab chiqish;

mahalliy xomashyo PPR 173H i FR-170 H markadagi polipropilen PPni modifikatsiyalash, antipirenlar qo'llash orqali olovga chidamliligini oshirish;

nometall yuk ko'tarish moslamalaridagi sintetik tola, ip, to'qima tasma va arqonlarning deformatsiyalanishi va qayta tiklanish jarayonlarini bashorat qilish usullarini ishlab chiqish;

ekspress sinovlar natijalari bo'yicha nometall tasma va arqonlarning deformatsiyalanish xususiyatlarini baholash usullarini ishlab chiqish va modellashtirish asosida qovushqoqelastiklik-relaksatsiya jarayonlarini bashorat qilish.

**Tadqiqotning obykti:**

qurilish-montaj va qutqaruv ishlarida qo'llaniladigan mahalliy xomashyo asosidagi nometall egiluvchan to'qima tasma va arqonli yuk ko'tarish moslamalari.

**Tadqiqotning predmeti** – qurilish-montaj va qutqaruv ishlarida qo'llaniladigan nometall egiluvchan yuk ko'tarish moslamalari sintetik tola, iplari, to'qima tasma va arqonlarining fizik-mexanik va ekspluatatsion xususiyatlari.

**Tadqiqot usullari.** Tadqiqot zamonaviy fizik-mexanik, fizik-kimyoviy, matematik-statistik usullar, matematik modellashtirish usullari, eksperimental

loyihalash, shuningdek, informatika va hisoblash matematikasi usullaridan foydalanilgan holda amalga oshirildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

ilk bora deformatsiya va mustahkamlik xususiyatlarining deformatsiya jarayonida yuzaga keladigan strukturaviy jarayonlar bilan bog'likligiga asoslangan sintetik tola va iplarning mexanik xususiyatlarining o'zgarish qonuniyatlari va asosiy parametrlarini aniqlanishiga erishilgan;

polipropilen, poliamid tola, iplar, tasma va arqonlar deformatsiyalarining qaytarilmas (qoldiq) komponentining to'planish qonuniyatlari va tabiati aniqlanib asoslangan;

elastik zanjirli polimerlardan olingan tola va iplar uchun keng harorat oraliqidagi cho'zilish qoldiq deformatsiyalari qiymatlarining eng maqbul variantlari ishlab chiqilgan;

mahalliy xomashyo asosida PPFR 173H va FR 170H markali polipropilenni modifikatsiyalash, ya'ni melamin sianurat antipireni qo'shimchasini 5% qo'llash orqali kislorod indeksi 5,2% yoki undan yuqori darajaga oshirishi taklif etilayotgan namunadagi tasma va arqonning har qanday termik va issiqlikbardoshlilik xususiyatiga ega ekanligini o'rganilishi bilan birgalikda, melamin sianurat qo'shimchasining 15% qo'shilganda polipropilenning mexanik xususiyatlarini pasayish ko'rsatkichlari olingan va mohiyati asoslangan;

oddiy relaksatsiya va oddiy sudraluvchanlik bo'yicha qisqa muddatli tajribalar natijalari asosida yopishqoq-elastiklikni matematik modellashtirish asosida NTTA uchun polimer materiallarning deformatsiya – qayta tiklanish jarayonlari va teskari relaksatsiya jarayonlarini bashorat qilish metodologiyasi ishlab chiqilgan;

qurilish-montaj va qutqaruv tashkillashtirish ishlaridagi ko'tarish moslamalarini (sintetik tola, ip, tasma va arqonlar) yuk ko'tarish qobiliyatining yuqoriligi aniqlangan va favqulodda vaziyatlarda qo'llashning alohida jihatlari hamda konstruksiyaviy xavfsizligi baholangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Olingan natijalarning ishonchliligi zamonaviy vositalar va usullardan foydalanib, tadqiqotlar majmuasini o'tkazish, yuqori o'xshash nazariy va eksperimental natijalarni olish, hamda nazariy va eksperimental tadqiqotlar natijasini amaliyotga joriy qilish bilan ta'minlangan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.**

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati – qurilish va tabiiy texnogen favquloddagi vaziyatlarda nometall to'qima tasma va arqonli zamonaviy yuk ko'tarish moslamalari haqidagi fikrlarni rivojlantirish, sintetik tola va iplar, to'qima tasma va arqonlarning fizik-mexanik xususiyatlari majmuini aniqlashning ilmiy-asoslangan yo'nalishni ishlab chiqish asosida, matematik modellashtirish orqali baholash uslubini ishlab chiqish va nometall materialli dinamik tizimlarda deformatsiya jarayonlarini tahlil qilishdan iboratdir.

**Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati** - mahalliy xom-ashyo negizidagi sintetik iplardan to'qilgan nometall to'qima tasma va arqonlar asosida samarali va iqtisodiy yuk ko'tarish moslamalarini ishlab chiqishdir.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Nometall to‘qima tasma va arqonlardan tayyorlangan egiluvchan yuk ko‘tarish moslamalarining konstruksiyaviy xavfsizligini baholash va ularni favqulodda vaziyatlarda qo‘llashning alohida jihatlari natijalari asosida:

Nazariy, eksperimental va amaliy tadqiqotlar natijasida (eksperimental indeksi NTTA PP) xavfsizlik koeffitsienti 1:7 ni hisobga olgan holda, NTTAlardan yuk ko‘tarish qobiliyati bitta egiluvchan vantda 1 tonna bo‘lgan bir, ikki va to‘rt vant konturli yuk ko‘tarish moslamalari yaratilgan va Farg‘ona viloyati FVB yong‘in-texnik markaziga joriy etilgan (dalolatnoma, 25.10.2023 yil). Natijada ilk bora mahalliy nometall to‘qima tasma va arqonli yuk kutarish moslamalari favqulodda vaziyatlarda qutqaruvchilarining ish samaradorligini oshirish uchun tavsiya etilgan;

Farg‘ona shahridagi “426-sonli xo‘jaliklararo maxsus mexanizatsiyalashgan ko‘chma kolonna” MChJda amaliyotga joriy etilgan (dalolatnoma, (15.06.2023 yil.) va “O‘zbekiston qurilish materiallari sanoati korxonalari uyushmasi”ning 05.10.2023 yildagi №05/15-2003-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada, qurilish-montaj va qutqaruv tashkillashtirish ishlarida taklif etilayotgan nometall ko‘tarish moslamalarining yuk ko‘tarish qobiliyatining yuqoriligi aniqlangan;

Marg‘ilon bunyodkor ta‘mir qurilish” MChJda amaliyotga joriy etilgan (dalolatnoma (04.07.2023 y.) va “O‘zbekiston qurilish materiallari sanoati korxonalari uyushmasi” ning 05.10.2023 yildagi 05/15-2003-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada taklif etilayotgan namunadagi tasma va arqonli yuk ko‘tarish moslamalaridan foydalangan holda favqulodda vaziyatlarda har qanday ko‘rinishdagi konstruksiyalar qoldiqlarini tozalash, insonlarni talofatsiz evakuatsiya qilish va boshqa jabhalarda ham keng ishlatish imkoniyatlari yuqori ekanligi asoslangan.

Quvasoy temirbeton ishlab-chiqarish korxonasida amaliyotga joriy etilgan (dalolatnoma (17.08.2023 y.) va “O‘zbekiston qurilish materiallari sanoati korxonalari uyushmasi” ning 05.10.2023 yildagi 05/15-2003-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada, mahalliy xomashyo asosida PFR 173H va FR 170H markali polipropilendan olingan sintetik multifilamentli iplardan tayyorlangan to‘qima tasmalarning mustahkamlik va cho‘zilish bo‘yicha ko‘rsatkichlari xorijiy analoqlarga yaqin qiymatlarga ega ekanligi aniqlangan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari, jumladan 4 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 29 ta ilmiy ishlar chop etilgan bo‘lib, jumladan, 1 ta monografiya, 5 ta xorijiy ilmiy jurnalda, 9 ta O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda, 6 ta xalqaro va 4 ta respublika miqyosidagi anjumanlar to‘plamlarida nashr etilgan, 1 ta foydali modelga patent, 3 ta EHM dasturiga mualliflik guvohnomasi olingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, oltita bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, shartli belgilar va atamalar ro'yxati va ilovalardan tashkil topgan. Dissertatsiyaning hajmi 200 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya ishining dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsad va vazifalar shakllantirilib, tadqiqotlarning ob'ekti va predmeti keltirilgan, tadqiqotning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi, olingan natijalarning ilmiy yangiligi va ilmiy-amaliy ahamiyati, ularni qurilish amaliyotida qo'llanganligi, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi, nashri va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Nometall egiluvchan yuk ko'tarish moslamalaridan foydalanishning zamonaviy xolati”** deb nomlangan birinchi bobida ilmiy-texnik adabiyotlarda tadqiqot mavzusiga doir chop etilgan ilmiy ishlarning analitik tahliliy sharhi keltirilgan. Bunda asosan favqulodda vaziyatlar sharoitida, qurilish-montaj ishlarida NTTAli yuk ko'tarish moslamalaridan foydalanish bo'yicha respublikamizda va ko'plab xorijiy mamlakatlarda bajarilgan nazariy va eksperimental tadqiqotlar natijalari tahlil qilingan. Tahlillar asosida polimer materiallarning deformatsion xususiyatlari, ekspluatatsiya sharoitlarida kimyoviy tolalarning makrotuzilmasi, relaksatsiyasi, qattiqligi, mo'rtligi, cho'zilishi, sudraluvchanligi, yoyilishi, ekspluatatsiya jarayonida fizik-kimyoviy chidamliligi, olovbardoshligi va NTTA asosidagi YuKM lar bo'yicha me'yoriy-xuquqiy baza o'rganilgan.

Dissertatsiyaning **“Favqulodda vaziyatlarda polimer egiluvchan yuk ko'tarish moslamalarining o'rni”** deb nomlangan ikkinchi bobida favqulodda vaziyatlarda qutqaruv operatsiyalari uchun tasma va arqonli jihozlar, qutqaruv vositalari, turli standartlardagi arqonlarning taktik va texnik ma'lumotlari, ularning xususiyatlari, nometall egiluvchan yuk ko'tarish moslamalarida yuklarni ishonchli ushlab turish shartlari, polimer materiallar uchun olovbardosh tizimlar, polimer materiallarning yong'inga chidamlilik xususiyatlari, olovga chidamli qo'shimchalarning asosiy turlari bo'yicha ma'lumotlar sharhi keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqot materiallari, konstruksiyalari, usul va uslublari”** deb nomlangan uchinchi bobida tadqiqot ob'ektlari tavsiflangan, kerakli tipdagi tolani olish texnologiyasi ko'rib chiqilgan, YuKM stroplar uchun



**1-rasm. Vertikal va gorizontallarga asoslangan multifilamentli tolalar ishlab chiqarish.**

ishlatiladigan materiallarning deformatsion xossalari va ularni baholash usullari, polimer tolalaridagi strukturaviy jarayonlarining mexanik xususiyatlariga ta'siri, tasmalarining to'quv va konstruksiyaviy xususiyatlari o'rganilgan. 1-rasmda vertikal va gorizontal texnologiyaga asoslangan multifilamentli tolalar ishlab chiqarish texnologiyasi taqdim etilgan.


1-jadval.

**Yuqori molekular og'irlikka ega sintetik multifilamentli va para-aramid filamentli tolalar**

<b>№ t/r</b>	<b>Material nomi</b>	<b>Yozilishi</b>	<b>Boshqa nomi, tovar belgisi, kelib chiqqan mamlakat</b>
1	2	3	4
1	Poliamid	PA, RA (eng)	Naylon, kapron
2	Poliefir	RET, PES	Poliester, lavsan, terilen, dakron
3	Poliropilen	RR	SVM Rossiya, O'zbekiston
4	Polietilen	RE	Rusar S, Ruslan-Rossiya
5	Aramid	RRTA	Kevlar-AQSh, technora-Yaponiya, twaron-Niderlandlar va boshqa.
6	Yuqori molekular og'irlikdagi Polietilen	HMPE, HPPE	Spektra-Germaniya, Duneema-AQSh, Trevo-Shvesiya va boshqa.

Tadqiqot ishida Samarqanddagi SAG, Toshkent shahridagi JV BIG BAG PRODUCTION LLC qo'shma korxonasi va Qo'qon shahridagi «Milord-N» xususiy korxonalarida ishlab chiqarilgan PPR 173H va FR-170 H markali polipropilendan olingan monotola va multifilament iplar tanlangan. To'qima tasma va arqonlarni ishlab chiqarish uchun xomashyo sifatida molekular og'irligi yuqori bo'lgan sintetik multifilamentli va para-aramid filamentli tolalar keng qo'llaniladi. Yuqori molekular og'irlikka ega sintetik multifilamentli va para-aramid filamentli tolalar 1-jadvalda keltirilgan.

O'zbekistonda har jihatidan sintetik tasma va arqonlar ishlab chiqarish uchun xomashyo sifatida yaroqli polipropilen Ustyurt gaz-kimyoy majmuasida (UGXK-Surgil koni) ishlab chiqariladi, quvvati yiliga 83 ming tonnani tashkil etadi. Iqtisodiyot vazirligining ma'lumotlariga ko'ra 2020 yili bu ko'rsatkich polietilen ishlab chiqarish bilan birga 512 ming tonnaga yetkazilgan.



**2-rasm. 2021 yilda kimyoviy tola ishlab chiqarilish ko'rsatkichlari**


Polipropilen oz miqdorda (0,2-0,5%) antioksidant, antipiren va agar kerak bo'lsa, pigmentli bo'yoqlarni o'z ichiga olgan zich granullar shaklida qo'llaniladi. Eritilgan polipropilendan multifilament tolalar va kompleks iplar ishlab chiqarish mumkin. Yuqori mustahkamlikka erishishi uchun tola va iplarni 100 – 140°S da 400–800% gacha cho'ziladi. Yuqori quvvatli texnik polipropilen tolasini olish uchun uni qo'shimcha ravishda polimerning erish nuqtasiga yaqin haroratlarda (170 - 180°C) kuchlanish ostida cho'zish kerak.

Bunday haroratlarda maksimal mumkin bo'lgan cho'zilish darajasi (120°S da 530% dan 170 - 180°S da 770% gacha) oshadi va tolaning mustahkamligi sezilarli darajada 66,4 do 84 kgs/mm<sup>2</sup> gacha, shu bilan birga tolaning cho'zilishi (45 dan 33% gacha) kamayadi.


Texnik mahsulotlar, yuk ko'tarish moslamalari uchun to'qima tasma va arqonlar ishlab chiqarishda mustahkamligi yuqori tolalarni olishda cho'zilish darajasini 700 - 800% gacha oshiriladi. Polipropilen multifilament tolalarni qisqa vaqt ichida qizdirish (120–140°S da 10 daqiqa) uning ishqalanishga chidamlilik darajasini 4–5 barobar oshiradi.

Dissertatsiyaning **“NTTali yuk ko'taruvchi moslamalarining ekspluatatsion xususiyatlarini nazariy va eksperimental tadqiq qilish”** deb nomlangan to'rtinchi bobida sintetik tolalar, iplar, to'qima tasma va arqonlarning mexanik xususiyatlari, kislorod indeksidan foydalangan holda polipropilenning yong'inga chidamliligini aniqlash, turli haroratlarda polipropilen tolasining deformatsiyalanishi, molekular destruksiya jarayonlari va ularning polipropilen iplarning deformatsiya xususiyatlari bilan o'zaro bog'liqligi yoritilgan.

Tolalarning mexanik xossalari ko'rsatkichlarini ko'pincha cho'zilishdagi diagrammalardan olinadi. Multifilamentli tola va iplarni uzish yukini va nisbiy cho'zilishini aniqlash bo'yicha tadqiqotlar Shimadzu Autografh AGS-X10 universal sinov mashinasida o'tkazilgan. Tadqiqot uchun quyidagi materiallar namunalari tanlab olingan: multifilamentli sintetik poliamid ipi; – multifilamentli sintetik polipropilen ipi. Sinov shartlari GOST ISO 139-2014 ga muvofiq o'tkazilgan. Namunaning chiziqli zichligi GOST 23362–2001 bo'yicha aniqlangan.



3-rasm. Poliamid tolasining yuklanish-uzayish grafigi



4-rasm. Polipropilen tolasining yuklanish-uzayish grafigi

2-jadvalda NTTA dan tayyorlangan yuk ko‘tarish moslamalari uchun ishlatiladigan polimer tolalarning namuna tolalar bilan solishtirma texnik tavsiflari keltirilgan.

2-jadval

### NTTA dan tayyorlangan yuk ko‘tarish moslamalari uchun ishlatiladigan polimer tolalarning namuna tolalar bilan solishtirma texnik tavsiflari

Material nomi	Chiziqli zichligi, teks	Uzilishdagi cho‘zilish, %	Uzilishdagi kuchlanish, GPa	Elastiklik moduli, GPa
Dakron	117	10,8	0,78	8,6
Mikrolayn (Spektra)	98	12,3	0,93	9,1
Teknora	110	15,1	0,96	7,6
Poliamid	110	18	0,70	7,1
Polipropilen	110	16,0	0,54	6,8

O‘rganilayotgan materiallarning ikkinchi guruxi to‘quv tasmlarni o‘z ichiga oladi. Tasmaning tuzilishi – to‘quv iplarining nisbiy joylashuvi va ularning bir-biri bilan bog‘lanishidan iborat.

Tadqiqotda sarjali to‘quv sxemasi ishlatilgan. 3-jadvalda bir qatlamli tasmaning texnik tavsiflari keltirilgan.



3-jadval

### Bir qatlamli tasmaning texnik tavsiflari

An’anaviy ravishda qabul qilingan tasma turi	Uzilishdagi yuklama, kN	Uzilishdagi cho‘zilish, %	Tasmaning elastiklik moduli, kN	Tarkibi
NTTA PP	42,0	13,4	44,0	PP–100%
NTTA PE	45,0	15,5	32,0	PE–100%
NTTA PS	39	13,6	42	PS–100%



5, 6-rasm. 100 tonnalik “WAW-1000 B” sinov mashinasida to‘quv tasmani sinovdan o‘tkazish



7, 8-rasm. Shimadzu Autograph AGS-X10 sinov mashinasida arqon namunalari sinovdan o‘tkazish

Tasma va turli diametrdagi arqonlar bo‘yicha sinovlar GOST 1497, GOST 12004, GOST 14019, GOST R ISO 2307–2014 bo‘yicha, materiallarning standart namunalari statik sinovdan o‘tkazish uchun mo‘ljallangan Shimadzu Autograph

AGS-X10, “WAW-1000 B” qurilmalarida FarPI va Toshkent kimyo texnologiya ilmiy tekshirish instituti laboratoriyalarida o‘tkazilgan. 5, 6 va 7, 8 - rasmlarda namunalarning sinovlari aks ettirilgan.


Arqonlarning har bir sinovi uchun, sinov mashinasining kompyuter dasturidan foydalangan holda, batafsil sinov jarayoni bilan grafik bog‘liqliklar tuzilgan. Har bir sinovlar uchun standart og‘ish 10% dan oshmagan. Sinov natijalari MathCad muhitida professional muammolarni hal qilish uchun yaratilgan dasturlar yordamida ishlangan.

4-jadval


### PP sinov natijalarining quruq shaklda juftlik korrelyatsiyasi matritsasi

№ t/r	Faktorlar	1	2	3	4	5
		P	$\varepsilon$	d	L	V
1	$P$	1	0,414	0,979	-0,012	0,024
2	$\varepsilon$	0,414	1	0,414	-0,825	-0,109
3	$d$	0,979	0,414	1	0	0
4	$L$	-0,012	-0,825	0	1	0
5	$V$	-0,024	-0,109	0	0	1

Bu yerda,  $d$  – namunalarning diametri (mm);  $L$  – sinov namunalarning uzunligi (mm);  $V$  – traversaning tezligi (mm/min);  $P$  – uzilish yuki (n);  $\varepsilon$  – namunalarning nisbiy uzayishi (%) hisobida.



**9-rasm.** Uzish kuchining PP diametriga bog‘liqligi: 1 – quruq shaklda; 2 – nam shaklda; 3, 4 – tasodifiy funktsiyaning ishonch intervallarining chegaralari




**10-rasm.** PP nisbiy cho‘zilishining (quruq shaklda) turli  $d$  da  $L$  ga bog‘liqligi

**Infra qizil spektrli tahlillar.** Tadqiqot ishida O‘zbekiston Respublikasining quruq issiq iqlimida NTTAli stroplarning ultrabinafsha va infraqizil nurlanishiga chidamliligini oshirish bo‘yicha tadqiqotlar o‘tkazilgan. Metallarni o‘z ichiga olgan yangi tarkibdagi maxsus murakkab kimyoviy tuzilishga ega qo‘shimchalar, ya’ni, mis ftalatidan  $Cu(C_8H_4O_4)_2$  foydalanilgan.

IQ – Fure spektrometri spektral to‘lqin raqamlarini yuqori aniqlik bilan aniqlash imkonini bergan. 11–rasmda qo‘shimchasiz va qo‘shimchali polipropilen filament namunalarning spektral to‘lqin raqamlari keltirilgan.

Spektrlar quyidagi  $1500-1900\text{cm}^{-1}$  chastotalarda tahlil qilingan, bu yerda kuzatilgan yutilish diapazonlari  $1735\text{cm}^{-1}$  va  $1710\text{cm}^{-1}$  va aldegid va kislota oxirgi ( $C=O$  va  $C=O$ ) guruhlarning tebranishlarini tavsiflaydi. Ushbu guruhlar valentlik aloqalarining uzilishi tufayli yuzaga keladigan  $H-OH$  zanjirli reaksiyalar natijasida paydo bo'lgan.



11-rasm. PP ipining  $1500-1900\text{cm}^{-1}$  chastota diapazonidagi IQ yutilish spektrlari

**Kislorod indeksini aniqlash.** Materiallarning yong'inga chidamliligining asosiy ko'rsatkichi hisoblangan kislorod indeksini aniqlash bo'yicha sinovlar o'tkazilgan. Sinov materiallari sifatida o'lchami  $3 \times 30 \times 50$  mm, og'irligi 3,5 gramm, yong'inga qarshi qo'shimchalar qo'shilgan namunalar tanlangan. Plastina namunalarini tayyorlash uchun olovga chidamli qo'shimcha PP granullari bilan yaxshi aralashishi uchun chang holatga keltirilgan va maxsus qurilma yordamida turli foizlarda olovga chidamli qo'shimchali granulalar olingan.


Tajribalar GOST 12.1.044-89 bo'yicha o'tkazilgan. 4-jadvalda polipropilen PP va melamin sianurat antiperini qo'shimchasi qo'shilgan aralashmalar % hisobida keltirilgan.

5-jadval

Polipropilen PP va antipiren qo'shimchasi qo'shilgan aralashmalar % hisobida



№ t/r	Kislorod ko'rsatkichi indeksi (KI)				
	Qo'shimchasiz PP	Melamin sianurat antiperini qo'shimchali PP, % da			
		3	5	10	15
1.	18,2	23,1	23,6	23,7	23,7
2.	18,2	22,9	23,5	23,6	23,6
3.	18,2	23,0	23,6	23,6	23,6

12-rasmda kislorod indeksini aniqlovchi qurilma tashqi ko'rinishi va sxemasi tasvirlangan.




12-rasm. Kislorod indeksini aniqlovchi qurilma: tashqi ko‘rinishi namuna plastina va sxemasi.


**Skanerlovchi elektron mikroskop va elementlar tahlillari.** Ustyurt gaz-kimyoy majmuasida ishlab chiqarilgan PFR 173H va FR-170 H markali polipropilen kukuniga qo‘shilgan melamin sianurat antiperini qo‘shimchali PP namunalarining sirt morfologiyalari, mikrostrukturalari, fazaviy va elementar tarkiblari elektron mikroskopda skanerlash usuli yordamida o‘rganilgan. PP namunalarining elektron mikroskopik tasvirlari 13 va 14-raslarda keltirilgan.



Element	Line	Mass%	Atom%
C	K	94.79±0.04	96.04±0.04
O	K	5.21±0.04	3.96±0.03
Total		100.00	100.00

13-rasm. Antiperin qo‘shimchasi PP namunalarining sirt morfologiyalari, mikrostrukturalari, fazaviy va elementar tarkiblari





Element	Line	Mass%	Atom%
C	K	87.41±0.04	90.44±0.04
O	K	11.95±0.05	9.28±0.04
Na	K	0.07±0.00	0.04±0.00
Si	K	0.47±0.00	0.21±0.00
K	K	0.05±0.00	0.02±0.00
Ca	K	0.05±0.00	0.01±0.00
Total		100.00	100.00

**14-rasm. Melamin sianurat antiperin qo‘shimchali PP namunalarining sirt morfologiyalari, mikrostrukturalari, fazaviy va elementar tarkiblari**

**Termal tahlil natijalari.** Termal tahlil LINSEIS (Germaniya) dan STA PT 1600 tipidagi sinxron termal analizatorida termogravimetriya (TG), differentsial termogravimetriya (DTG) va differentsial skanerlash kalorimetriyasi (DSC) yordamida amalga oshirilgan.

O‘lchovlar xona haroratidan 800°C gacha bo‘lgan harorat oralig‘ida daqiqada 10 daraja isitish tezligi bilan dinamik rejimda havo atmosferasida amalga oshirilgan.

Namunalarning dastlabki og‘irligi 21,0-26,0 mg. O‘rganilayotgan namunalarning termal-oksidlanishga chidamliligini raqamli baholash termogravimetrik tahlil egri chiziqlari yordamida xarakterli harorat qiymatlari bilan baholangan.

Ular mos ravishda 10, 20, 30 va 40 og‘irlikdagi yo‘qotishlar sodir bo‘lgan T<sub>10</sub>, T<sub>20</sub>, T<sub>30</sub>, T<sub>40</sub>, haroratlari % larda, bir xil eksperimental sharoitda (isitish tezligi, vosita va boshqalar) bilan baholangan.


15-16-rasmlar va 5-jadvaldan ma’lum bo‘lishicha, qo‘shimchani o‘z ichiga olgan asl polipropilen va polipropilenning xona haroratidan 800°C gacha bo‘lgan haroratni skanerlashda issiqlik-oksidlovchi destruksiyaning tabiati boshqacha davom etadi.

Asl polipropilenning termal-oksidlanish yo‘q qilinishiga nisbatan nisbiy qarshilik yuqori.


6-jadval.

**Ommaviy yo‘qotishning belgilangan qiymatlarida namunalarning xarakterli haroratlarining qiymatlari.**

№ Tr	Namuna nomlari	Xarakterli harorat, °S	
		Polipropilen	Qo‘shimchalar tarkibiga ega polipropilen
1	T <sub>10</sub> ,	304.4	301.6
2	T <sub>20</sub> ,	337.0	328.3
3	T <sub>30</sub> ,	363.3	352.1
4	T <sub>40</sub> ,	381.8	366.0



**15-rasm. Asl polipropilenning termogravimetriya (TG) – (1), differensial termogravimetriya (DTG) – (2), differensial skanerlash kalorimetriyasi (DSC) – (3) eksperimental egri chiziqlari.**




**16-rasm. Melamin siyanurat zarralarini o‘z ichiga olgan polipropilenning TG-(1), DTG-2), DSC-3) eksperimental egri chiziqlari.**

Tadqiqot ishida, shuningdek, turli xaroratlarda polipropilen tolasining deformatsiyalanish xususiyatlarini va deformatsiyaning qoldiq komponentini o‘rganish amalga oshirilgan. Tadqiqot ob’ekti sifatida yuqori mustahkamlikka ega texnik maqsadlar uchun ishlab chiqarilgan PP-1 olingan.


Uning mexanik xususiyatlari va strukturaviy jarayonlarni o‘rganish  $T=20, 50, 80, 100^{\circ}\text{S}$ , xaroratlarda amalga oshirilgan, bu shisha holatiga o‘tish haroratidan yuqori va erish xaroratidan pastdir. PP tolasidagi qisqarish deformatsiyasining ortishi  $T>80^{\circ}\text{C}$  da kuzatilgan.  $T = 100^{\circ}\text{C}$  da  $\varepsilon_y = 1,5$  ga teng, shunga qaramay, bu haroratda deformatsiyalanish jarayonlarini o‘rganish amalga oshirilgan.

17-rasmda polipropilen PP-1 tolasining termomexanik egri chizig‘i keltirilgan.  $V = 100\text{mm}/\text{min}$ . va  $T=20, 50, 80, 100^{\circ}\text{C}$  da olingan PP-1 ipining cho‘zilish diagrammasi 18-rasmda keltirilgan.

PP-1 ipining sudraluvchanligi va elastik tiklanish jarayonlari 20, 50, 80,  $100^{\circ}\text{S}$  xaroratlarda ta’sirida kichik yuklamadan to uzilishgacha bo‘lgan chegaralarda o‘rganilgan.




**17-rasm. PP-1 polipropilen tolasining termomexanik egri chizig‘i**



**18-rasm. Turli haroratlarda polipropilen ipni cho'zish sxemalari**

Sudraluvchanlik va elastik tiklanish vaqti 10 minutni tashkil qilgan. Tadqiqotlar vaqt o'tishi bilan qayta tiklanish jarayonining tezligi sezilarli darajada pasayganligini ko'rsatgan, shuning uchun bu jarayonning asosiy qismi 10 daqiqada sodir bo'ladi deb taxmin qilishimiz mumkin.


PP-1 ipining tiklanish deformatsiyasi jarayonini ko'rib chiqaylik, 19-20 rasmlarning o'ng tomonida keltirilgan.



$\sigma$ , qiymatlari MPa: 24(1); 40(2); 79(3); 95(4); 119(5); 134(6); 159(7); 187(8); 198(9); 214(10); 240(11); 262(12); 278(13); 294(14); 315(15).

**19-rasm.  $T = 20^{\circ}\text{S}$  va turli kuchlanish qiymatlarida olingan polipropilen ipi (PP-1) uchun sudraluvchanlik (I) va elastiklik tiklanish (II) egri chiziq oilalari**

19 va 20 – rasmlarda  $T=20^{\circ}\text{C}$  va  $T=50^{\circ}\text{C}$  da polipropilen ipi PP-1 uchun turli kuchlanish qiymatlarida sudraluvchanlik (I) va elastiklik tiklanish (II) egri chiziq oilalari yarim logarifmik koordinatalar sistemasida keltirilgan.




$\sigma$ , qiymatlari MPa: 24 (1); 40 (2); 56 (3); 63 (4); 79 (5); 95 (6); 100 (7); 119 (8); 134 (9); 154 (10).

**20-rasm.  $T = 50^{\circ}\text{S}$  va turli kuchlanish qiymatlarida olingan polipropilen ipi (PP-1) uchun sudraluvchanlik (I) va elastiklik tiklanish (II) egri chiziq oilalari**


Juda kichik yuklama ham qayta ishlangan (cho'zilgan) PP tolalarida qaytarilmas jarayonlarni keltirib chiqargan, bu qoldiq komponentning intensiv o'sishi bilan tasdiqlangan. Sudraluvchanlik jarayonida deformatsiya va kuchlanish o'rtasidagi bog'liklikni o'rnatish uchun, egri chiziq oilasidan turli xaroratlar uchun olingan  $\sigma(\epsilon_{10})$  egri chiziq bog'likliklari ishlatilgan.

21-rasmda turli xaroratlarda olingan ( $t=10min.$ ) PP-1 uchun qo'llanilgan kuchlanishlarda qoldiq deformatsiyaning bog'likligi keltirilgan va 22-rasmda turli

xarotalarda olingan ( $t=10 \text{ min.}$ ) polipropilen PP-1 ipining egri chiziq bog'likliklari keltirilgan.



T, °S: 20 (1); 50 (2); 80 (3); 100 (4)  
**21-rasm. Turli xarotalarda olingan polipropilen ipi (PP-1) uchun qoldiq deformatsiyaning qo'llanilgan kuchlanishga bog'likligi.**



T, °C: 20 (4); 50 (3); 80 (2); 100 (1)  
**22-rasm. Turli xarotalarda olingan polipropilen ipi (PP-1) egri chiziq bog'likliklari ( $t=10 \text{ min}$ )**

Taqqoslashlar shuni ko'rsatdiki,  $\sigma_r$  ning barcha qiymatlari  $\varepsilon_r \approx 4\%$  yaqin qiymatiga to'g'ri kelgan. Shunday qilib, qoldiq deformatsiyasining intensiv o'sishining boshlanishi amalda xaroratga bog'liq bo'lmagan holda, bu material uchun cho'zilish deformatsiyasining doimiy qiymati bilan aniqlanadi. Ushbu xulosani tasdiqlash uchun qoldiq deformatsiyaning qiymatlari va sudraluvchanlik jarayonidagi deformatsiya o'rtasidagi munosabatni tavsiflovchi  $\varepsilon_{qold}$  ( $\varepsilon_z$ ) bog'liklik qurilgan.

Bu bog'liklik  $\varepsilon \approx 4 \div 5\%$ , ga o'tishga ega bo'lib,  $\varepsilon_r$  qiymatga mos keladi.  $\varepsilon_{kol}$  ( $\varepsilon_{\text{ber}}$ ) ga bog'liklik barcha o'rganilayotgan xaroratlar uchun umumiy xususiyatga ega, ya'ni qayta ishlangan (cho'zilgan) PP-1 uchun qoldiq deformatsiyalar berilgan cho'zilishlar bilan aniqlangan.

Dissertatsiyaning **“Polimer materiallarning qovushqoqelastik xususiyatlarini modellashtirish”** deb nomlangan beshinchi bobida sintetik stroplar relaksatsiyasi va ularni tashkil etuvchi tola va iplarning matematik modelini qurish uchun NAL funksiyasi (logarifmning normalashtirilgan arktangensi) tanlangan.

Murakkabroq makrotuzilmaga ega bo'lgan polimer to'qimachilik materiallari (to'qilgan tasma, arqonlar)ning yopishqoqelastik xususiyatlarini matematik modellashtirish uchun qisqartirilgan vaqt logarifmi (NAL) funsiyasining normalangan arktangensidan foydalanish maqsadga muvofiqdir:

$$\varphi_{\varepsilon t} = \frac{1}{2} + \frac{1}{\pi} \arctg \left\{ \frac{1}{b_{n\varepsilon}} \ln \frac{t}{t_1} \right\}, \quad (2.1)$$


Bu yerda, bu erda  $t_1$ - argumentli  $t$  o‘lchovsiz qiymatida qisqartiruvchi asosiy vaqtning ma’lum bir qiymati;  $\varepsilon$  – deformatsiya qiymati,  $\frac{1}{b_{n\varepsilon}}$  – jarayon intensivligi

parametri, chunki 
$$\frac{1}{b_{n\varepsilon}} \ln \frac{t}{t_1} = \ln \left\{ \frac{t}{t_1} \right\}^{\frac{1}{b_{n\varepsilon}}} \quad (2.2)$$


Shuni takidlash lozimki, NAL funksiyasining qulayligi uning soddaligi bo‘lib, jadvalda keltirilgan EI funksiyadan farqli o‘laroq, xisoblash jarayonlarini, masalan, integrallashni soddalashtirgan. Normalashtirilgan relaksatsiya funksiyasidan foydalanib,  $E_{\varepsilon t}$  relaksatsiya moduli taxmin qilaylik.

$$E_{\varepsilon t} = E_0 - (E_0 - E_\infty) \varphi_{\varepsilon t}, \quad (2.3)$$

Bu yerda,  $E_0$  - elastiklik moduli,  $E_\infty$  - qovushqoqelastiklik moduli.



23-rasm. Umumlashtirilgan relaksatsiya egri chizig‘ining sxematik grafigi.



24-rasm. NTLK PP-1600 nometall stropning turli deformatsiyalarda kuchlanish (kuch) relaksatsiya egri chizig‘ining ‘oilasi’,  $T = 20^\circ$

Logarifmik koordinatalar tizimidagi umumlashtirilgan relaksatsiya moduli egri chizig‘ining grafigi sxematik tarzda 23-rasmda keltirilgan.

Relaksatsiyaning eksperimental ‘oilasi’ni qayta ishlash orqali relaksatsiyaning xususiyatlarini aniqlash metodikasining tavsifiga o‘tamiz. Ushbu metodikani NTLK PP-1600 nometall stropning eksperimental ‘oilasi’ relaksatsiyasi misolida ko‘rib chiqamiz. Uchinchi bobning 3.1-bandida tasvirlangan qurilmalarda o‘tkazilgan tajriba natijasida  $\varepsilon = const$  deformatsiyaning turli xil qiymatlarida kuchlanish (kuch) relaksatsiya egri chizig‘ining ‘oilasi’ olingan, ya’ni  $\sigma$  (yoki kuch  $P = \sigma F$ ) ning logarifmik vaqt shkalasidagi deformatsiyasiga bog‘liqligi

$$P_{\varepsilon t} = \sigma_{\varepsilon t} \cdot F = P(\varepsilon, \ln \frac{t}{t_1}) \quad (\text{bu yerda: } t - \text{vaqt, } t_1 = 60 \text{ s} - \text{asosiy vaqt qiymati, } F -$$

namunaning ko‘ndalang kesim yuzasi). Bundan keyin, relaksatsiya egri chiziqlarining ‘oilasiga’ (24-rasmga qarang) ko‘ra, relaksatsiya moduli

qiymatlarining ‘oilasi’ olinadi: 
$$E_{\varepsilon t} \cdot F = \frac{\sigma_{\varepsilon t} \cdot F}{\varepsilon} = \frac{P_{\varepsilon t}}{\varepsilon},$$

NTTA PP-1600 sintetik strolarning relaksatsiya moduli “oilasi” va yuqoridagi barcha relaksatsiya xarakteristikalari maxsus ishlab chiqilgan va O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi xuzuridagi Intellektual mulk agentligida rasman ro‘yxatdan o‘tgan kompyuter dasturi № DGU 07367 “Sintetik to‘qilgan tasmalarning sudraluvchanligi va relaksatsiyasini xisoblashning avtomatlashtirilgan tizimi” yordamida aniqlangan.

Relaksatsiya jarayonining xisoblangan nuqtalarini kuzatish uchun eksperimental qiymatlar bilan taqqoslash 24–rasmda keltirilgan. Kuchlanishlarning (kuchlarning) xisoblangan qiymatlari turli vaqtlarda ko‘rib chiqilgan deformatsiya qiymatlarining butun diapozoni uchun eksperimental qiymatlarga yaqin.

